IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

Oltinsoy tumani shevasining morfologik xususiyatlari

Dobilova Sevinch

Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi

fakulteti Amaliy filologiya yo‘nalishi 1-kurs

222- guruh talabasi

E-mail manzil: sevinchdobilova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oltinsoy tuman shevasining morfologik xususiyatlari tahlil etilgan. Maqola misollar yordamida osonroq tushuntirilishga harakat qilingan. Oltinsoy tuman shevasidagi so‘zlar guruhlarga bo‘linib o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: sheva, adabiy til, morfologik, ovoz, til, holat, yo‘sin, ravish,folklor, til, hudud.

Annotation: This article analyzes the morphological features of the dialect of Oltinsoy district. The article has been tried to be explained more easily with the help of examples. The words in the Oltinsoy district dialect were studied in groups.

Key words: dialect, literary language, morphological, voice, language, state, adverb, folklore, region.

Sheva atamasi forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, holat, yo‘sin, ravish kabi ma’nolarni anglatadi. Shevalar o‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik bir qismi bo‘lib, o‘zlarining hududiy o‘rinlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Shevalarning ko‘pligi adabiy tilga bo‘lgan extiyojni yuzaga keltirgan. Adabiy til barcha o‘zbeklar uchun tushunilish imkoniyatiga ega bo‘lgan til hisoblanadi. O‘zbek adabiy tili muayyan shevalar asosida tartibga solingan tildir. U shevadan bir nima , bu shevadan bir nima olinib barchaga tushunarli umumiy shakl hosil qiladi. Mening fikrimcha, shevalar adabiy tilga emas, adabiy til shevalarga moslashib borishi lozim, chunki sheva tilning jonli shakli va adabiy tilning asosiy boyish manbaidir. Shevaning ham adabiy tilning ham o‘ziga yarasha o‘rni, ahamiyati , iste’mol doirasi bor. Bularning hech biridan butunlay voz kechib bo‘lmaydi. Shevalarimizni asrashimiz, kundalik hayotda, san’atda, televidiniyada, folklorda, internetda, kinoda, musiqada ulardan keng foydalanishimiz kerakdir. Adabiy tilni esa hujjatlarda va ta’lim jarayonlarida keng qo‘llashimiz zarur.

Oltinsoy shevasi biroz dag‘al va qo‘polroq ohangga egaligi bilan ajralib turadi. Jumladan, jo‘l (yo‘l), ena(ona), jalama(shavla), jilan(ilon), satil (chelak), tov(tog‘), buva(bobo) singari so‘zlar fikrimizni yaqqol misolidir. Yana bir o‘ziga tortadigan jihati borki, shevalarni bir-biriga o‘xshashligi, ular o‘rtasidagi farqlar haqida fikrlarimizni jamlab, shevalar har bir hudud aholisining ichki dunyosini va xulq atvorini ifodalashini bilib olamiz. Oltinsoy aholisi shevasidan vohamiz ahlining biroz sodda va dalli-g‘ulli ekanliklarini anglash qiyin emas. Aslini olib qaraganda, bu ham faqat o‘zbeklarga xos til va harakter jamlanmasidir.

Saidmuso Rahimov o‘zining ’’O‘zbek tili-Surxondaryo shevalari’’ kitobida – O‘zbek tili xilma-xil dialekt va shevalarni o‘z ichiga olishi bilan harakterli ekanligi tilshunos olimlarimiz tomonidan ko‘p bora aytilganligi, shu nuqtai nazardan Surxondaryodagi o‘zbek aholisining tili ham yaxlit bir butun shevani tashkil etmasligini va bu hududda turli xil shevalarni keltirish mumkinligini izohlab o‘tgan. Oltinsoy tumani shevasi ham turli xil usullarda tasnif qilinadi. Masalan:

1) J-lovchi sheva (Oqarbuloq,Madaniyat, Alpomish, Mirshodi, Karsagan, Yangi qurulish, Jiyanbobo kabi mahallalarning shevasi)

2) Y-lovchi sheva (Ipoq, Bo‘ston, Karliq,Qoratepa,Mo‘minqul, Marmun kabi mahallalarning shevasi)
3) Ham j-lovchi ham y-lovchi sheva (Shakarqamish SFU va Xo‘jasoat, Bibizaynab, Botosh, A.Bo‘tayev, Jilibuloq kabi mahallalarning shevasi)
4) Ikki tilda so‘zlashuvchi shevalar (ya’ni o‘zbek va tojik) (Oq oltin, Xo‘jaipok, Oq suv, Guliston, Vaxshuvor, Lo‘kka, Xayrondara, kabi mahallalarning shevasi).

Respublikamizdagi viloyatlarning har birida o‘ziga xos lahja va shevalar majmui bo‘lgani kabi Oltinsoy tumanining ham o‘ziga xos lahja va shevalar majmui bor.Quyida sizlarga ushbu sheva va lahjalarni bo‘limlarga bo‘lingan holda - o‘rganilgan tavsifini ko‘rsatib o‘tamiz:

Inson ta’na a’zosi bilan bog‘liq bo‘lgan leksemalar:

- Soch((mo‘y, tuk, jun) — odamning bosh terisidan o‘sadigan ipsimon shox unum.
- Kokil - ayollar sochining bir o‘rimi.
- Manglay (peshona) - soch va qosh o‘rtasidagi soha.
- Qovoq – ko‘zning ustki qoshning pastgi qismi.
- Yanoq - yuzning bo‘rtib turgan qismi.
- Jimjiloq – eng kichik beshinchi barmoq.
- Baqbaqa-iyak osti sohasi.
- Iyn – yelkaning yana bir nomlanishi.
- Jigar-bovur
- Son-bo‘rbay.

Taomlar bilan bog’liq leksemalar bazasi:

- Chalop – Suzmaga suv aralashtirib tayyorlanadigan ichimlik.
- Galubsi – Bulg‘ori sho’rva.
- Pelmin – Chuchvara.
- Moxora – No‘xat sho‘rva.
- Shulla – Keskan osh.
- Ko’cha shulla – Bug‘doyni kelchakdan o‘tkazib tayyorlanadigan sho‘rva.
- Kulobi to‘ppa – Xamirni qaynatib tayyorlanadigan taom.
- Makka sho‘rva – Dumbul ya’ni sutli jo‘xoridan tayyorlanadigan sho‘rva.
- Atala (oq blamiq) - un,sut va shakar solib qaynatiladigan taom
- Shirguruch – Guruchli suyuq taom.
- Shirqovoq – Qovoq va guruchli suyuq taom.
- Jilik sho‘rva – Mol yoki qo’yning oyoq(siyrog‘i)dan tayyorlanadi.
- Qallama – Qatlama
- Xolvaytar – Unni qovurib sut bilan pishiriladigan taom
- Nisholda – Shirinmiya ildizini shakar va tuxum oqi bilan qaynatilib pishiriladigan taom
- Paxlava – Yong‘oqli shirinlik
- Chak-chak – Shakarga botirilgan xamir
- Jupqa – Qozonga quritilgan xamir
- G‘ilmindi – Quyultirilgan sut solib quritilgan jupqa xamiri

Ro‘zg‘or buyumlari bilan bog‘liq leksemalar bazasi

- O‘roq - turli boshoqli ekinlar, beda, pichan va o‘tlarni qo‘lda o‘rish uchun ishlatiladigan, beli bukik, o‘tkir tig‘li mehnat quroli nomini ifodalaydi. Bu hududda o‘roqning kächkart - kishik o‘roq, manal - tishsiz o‘roq kabi turlari ham ushraydi.
- Bel - yerni qazish, kovlash, ag‘darish yoki kurash uchun yog‘och yoki metaldan yasalgan uzun sopli asbob nomini bildiradi. Bu anjomning kichkina xili belcha, kapcha shaklida nomlanadi. Bel tub so‘z bo‘lib, cha kichraytirish affiksi qo‘shilgan va kichkina kurak ma’nosini anglatyapti.
- Katman - yuzi katta, orqa tomonida dasta suqib qo‘yadigan zo‘g‘atasi bor, yer chopish, loy qilish va boshqa ishlarda ishlatiladigan dastaki asbob
- Shoxa - odatda besh tishli sanchig‘i bo‘lgan, beda, pichan va boshqalarni -olish, surish uchun ishlatiladigan uzun sopli asbob.
- Arra - taxtalarni arralashda qo‘llanadigan xo‘jalik uy-ro‘zg‘or buyumi

Marosim bilan bog‘liq leksemalar bazasi:

- Sovchilik – yigitning onasi amma yoki xolasi bilan mo'ljaldagi qiz xonadoniga tashrif buyurib "mehmonga keldik" bahonasi bilan qizni ko'radilar. Ayni paytda uy-joy, hovlining tozaligi, saranjomligi dasturxon qanday bezatilishi, uy egalarining mehmon do'stligiga razm soladilar.
  Qizning onasi bilan suhbatlashib "Onasini ko'ru, qizini ol" maqoliga rioya qiladilar. Sharqona odobga ko'ra, yigitning onasi o'z o'g'li haqida gapirishi, maqtashi odobdan sanalmaydi. Yana bir nozik jihati, sovchilar ham, qiz tomon ham bir-birining sha'niga tegadigan so'z qilmaydi, deylik qiz tomonga kuyov tomon ma'qul bo'lmadi. Shunda ham ochiqdan ochiq yo'q deyilmaydi. "Qizimiz hali yosh", "o'qishi bitsin" kabi so'zlar aytiladi.
- Non sindirar – Kelin tomondan rozilik bildirilgandan so‘ng ikki tomon yoshi ulug‘lari tomonidan non sindirar (patir ushatish) marosimi o‘tkaziladi.
- Potiya to‘yi – Bunda yuqorida o‘tkazilgan marosimlardan so‘ng ikki taraf o‘zlariga ma’qul bir kunni belgilab potiya (fotixa) to‘yini o‘tkazishadi.
- Ijob to‘yi – Bu marosim to‘ydan oldin tuman imomi tomonidan o‘tkaziladi.Imom ikki yoshni dinimizga mos ravishda nikohlab qo‘yadi.
- Kuyov keldi – kuyov jo‘ralar kelinnikiga kelgan vaqtda kuyov o‘tirmayapti deb jo‘r bo‘lishadi.Bu bilan kuyov kelgani kelin timonga bildiriladi.
- Betochar – Kelin kuyovnikiga kelgandan so‘ng kuyov tomondan yosh bola kelinning yuzidagi oq chimmatini oladi.
- Quyruq to‘rar – Kelinning pichoq, taxtasi doim go‘sht, yog‘li bo‘lsin degan ma’noda kelin quyruq to‘g‘raydi.
- Un elar – Shu orqali kelin bo‘lmishning un elash, non va xamir qilishdagi mahorati sinovdan o‘tkaziladi.
- O‘choq moylar – Kelinning o‘chog‘i doim moyli bo‘lsin degan ma’noda o‘choqga kelin moy quyadi.
- Kelin salom – Kelin kuyovning barcha qarindoshlariga birma-bir ta’zim berib chiqadi.
- Supraqoqdi – To‘yning ertasi kuni to‘yda xizmat qilgan qarindosh-urug‘lar, do‘st-u birodarlar osh qilib mehmondorchilikga chaqiriladi.
- Quda chaqirdi – to‘ydan keyin kuyov tomon kelin tomonni mehmondorchilikga chaqirishi.
- Kuyov chaqirdi – Kelinning ota-onasi tomonidan kuyov va qudalarni mehmondorchilkga chaqirishi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, milliy shevamiz xalq og‘zaki durdonasi sifatida xalq donishmandligining, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan noyob merosi, keksa ajdodlarning bemisil xazinasidir.Bizning shevaga xos so‘zlardan foydalanishimiz nutqimizga xos xususiyat.Lekin shevada so‘zlar ekanman deb o‘zbek adabiy tilining mazmundorligini buzishimiz odob doirasidan emas,nazarimda. O‘zini, o‘zligini hurmat qilgan inson esa bu doiradan hech qachon chiqmaydi. Quyidagi sizlarga yoritib bermoqchi bo‘lgan maqolamizda Oltinsoy tumanining uzoq o‘tmishiga borib taqaladigan sheva va lahjalarini tumanimiz xalqining og‘zidan og‘ziga o‘tib kelishi, rivojlanishi va ishlatilishi kabi masalalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.:T-2013.S 88.
2. Rahimov S. O‘zbek tili – Surxondaryo shevalari.:T-1985.S 96.
3. Rahimov S. Surxondaryo viloyatidagi o‘zbek shevalari leksikasi.:T-1975.
4. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi.: T-1990. S 136.